

# XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

---

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

**PUBLIC EDUCATION**

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2021**

**2-son**  
(Maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



**TAHRIRIYAT**

- 4** Oliy ta'limda kredit-modul tizimi – ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasidir



**TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI**

- Sh. Mardonov, O. Jabborova 6** Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari
- A. Abdullayev 9** Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya darslarini sog'lomlashtirishga yo'naltirish metodikasi
- D. Maxmudova 12** Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash muammosiga nazariy yondashuvlar
- M. Musurmonova 16** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida ta'lim sifatini oshirishda "Matematika" fanining ahamiyati
- R. Musurmanov, M. Musurmonova 20** Umumiy o'rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xususida
- F. Ochilov 23** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy faoliyatini takomillashtirishda "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarining ahamiyati
- B. Axmadaliyev 27** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik bilimlarini va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda texnologik ta'lim darslarining ahamiyati
- G. Tojiboyeva, Z. Suleymanova 31** Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarining roli
- U. Shermatova 35** Millat ruhini saqlash yo'lida
- F. Atabekov 39** Bola tafakkurining rivojlanishida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'imi
- O. Jabborova 43** Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning pedagogik muammolari
- M. Achilova 46** Shaxsning jismoniy, psixologik rivojlanishida pedagogikaning roli
- D. Po'latova 50** Xalq ta'limi tizimida "Barkamol avlod" maktablari
- Z. Umarova 54** Ta'lim muassasalaridagi nizolarni hal qilish



**TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI**

- M. Abdullayeva 57** Pedagogik va tarbiyaviy ishlar metodikasi
- G. Kuzmanova, B. Alimov, N. Beketov 61** Uchinchi tartibli tenglamalar
- X. Gulyamova 65** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish metodikasi
- R. Nosirova 69** Maktabgacha ta'limda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi metodlarni qo'llash orqali bolalarni maktabga tayyorlash



**ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI**

- D. Mutalova 73** Ta'lim klasteri talabalarni innovatsion kasbiy tayyorlashning innovatsion asosi sifatida
- L. Boliyeva 76** Oliy ta'limda "Steam" texnologiyasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari

---

**Abduqayum ABDULLAYEV,**  
Chirchiq davlat pedagogika instituti  
"Maktabgacha ta'lim" kafedراسi mudiri, dotsent

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI SOG'LOMLASHTIRISHGA YO'NALTIRISH METODIKASI**

### **Annotatsiya**

Maqolada muallif boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga jismoniy tarbiya dars mashg'ulotlarida o'qituvchi-murabbiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar tahlil qilingan. Shu bilan birga, muallif yosh avlodni jismonan va ruhan sog'lom tarbiyalashga doir o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tgan.

**Kalit so'zlar.** Sog'lomlashtirish, genofond, "Alpomish va Barchinoy" talablari, jismoniy yuklama, mashq elementlari.

В статье анализируются аспекты, на которые педагогу-тренеру следует обратить внимание на уроках физического воспитания младших школьников. При этом автор высказал свои взгляды на физическое и психическое здоровье подрастающего поколения.

**Ключевые слова.** Здоровье, генфонд, требования "Альпомиша и Барчиной", физическая активность, элементы упражнений.

The article analyzes the aspects to which a teacher-trainer should pay attention to physical education lessons for junior schoolchildren. At the same time, the author expressed his views on the physical and mental health of the younger generation.

**Key words.** Health, gene pool, requirements of "Alpomish and Barchinay", physical activity, elements of exercise.

**B**ugungi kunda yosh avlodning ham ruhan, ham ma'nan barkamol shaxs sifatida voyaga yetishi hozirgi ta'lim tizimining bosh maqsadidir. Mamlakatimizda bu borada bir qator keng ko'lamdagi ishlar olib borilayotgani ham buning yaqqol misoli bo'la oladi. Aholining salomatlik darajasini oshirish, mustahkamlash barobarida kichik yoshdagi aholi qatlami salomatligiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki bugungi kun yosh avlodning salomatligi, tarbiyasi bevosita millatimiz ertangi kuniga ta'sir etadi. Shu sabab, hozirda O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bunda sohaga millat genofondini sog'lomlashtirish, jismoniy va intellektual salohiyati yuqori avlodni tarbiyalashning asosi, miliy o'zlik g'oyasini singdirishda strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim soha sifatida munosabat bildirilmoqda.

Demokratik jamiyatni rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sport sohasida o'quvchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, iqtidorlarni izlab topish, ularni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Yuqoridagi maqsadlar amalga oshishi uchun esa, albatta, jismoniy tarbiya hamda sport mamlakat aholisi madaniyatining ajralmas bir qismi bo'lishi talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevralda qabul qilingan

“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarida ham “bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug‘ullanishiga, ularni musiqa va san‘at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sport obyektlarini, bolalar musiqa va san‘at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish” vazifasi qo‘yilgani ham bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi “Madaniyat va sport sohasidagi boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi tashkil etilganligi mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqaruv tizimining takomillashuviga, belgilangan vazifalarning to‘laqonli amalga oshishiga, bir so‘z bilan aytganda, sport sohasida davlat siyosatini yangi sifat darajasiga ko‘tarishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar bajarilishi jamiyatda yuqori ma‘naviy va axloqiy muhitni ta‘minlash, xalqimizning jismoniy va ijodiy faolligini oshirish, yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash uchun zarur sharoitlar yaratish, sport sohasida xalqaro miqyosda erishilayotgan yutuqlarimizni yanada ko‘paytirish orqali mamlakatimiz nufuzini mustahkamlash uchun imkoniyat yaratadi.

Maktabgacha hamda boshlang‘ich ta‘limdagi jismoniy tarbiya dars mashg‘ulotlari o‘quvchilarda asosiy harakatlantiruvchi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga, ularda muhim jismoniy harakat elementlarining asosini yaratishni nazarda tutadi. An‘anaviy usulda olib boriladigan dars mashg‘ulotlari o‘quvchilarning ma‘lum bir jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirish, yoshga doir malaka va bilimga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. O‘quv mashg‘ulotlari davomida bolalardagi jismoniy imkoniyatlar darajasi turli bo‘lganligi sababli o‘qituvchi har bir o‘quvchi bilan alohida yoki ularni guruhlariga ajratgan holda mashg‘ulotlarini olib borishi mumkin. Biroq hozirgi kunda ta‘lim jarayonida bu masalaga yetarlicha e‘tibor qaratilayotgani yo‘q. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘tilishi jarayonida nazariyot va amaliyotni bog‘lab turuvchi yaxlit bir tizim ishlab chiqilmagani ko‘rsatadi. Ushbu tizimni ishlab chiqish jismoniy imkoniyatlari turli darajadagi bo‘lgan bolalarning sog‘ligini mustahkamlashga imkon beradi.

O‘quvchilarning qobiliyatlarini namoyon etishga qaratilgan, biroq mashg‘ulotlar barcha uchun umumiy bo‘lgan ta‘lim bolalarning yetarli darajada intensiv rivojlanishini kafolatlay olmaydi. Buni, albatta, o‘quvchilarning turli xil jismoniy tayyorgarlikka ega ekanligi bilan izohlashimiz mumkin. O‘qitilayotgan sinf o‘quvchilari orasida boshqa tengdoshlariga nisbatan jismonan kuchli, o‘rganilayotgan mashq elementlaridan boxabar va bu mashq elementlari ularga hech qanday qiyinchilik tug‘dirmasligi mumkin. Ya‘ni bir o‘quvchi harakatlantiruvchi jismoniy elementni endi o‘zlashtira boshlaganida boshqa o‘quvchi ushbu elementni allaqachon egallagan bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi-murabbiy bu kabi vaziyatlarni ham hisobga olib, bu o‘quvchilarga yuklama darajasi nisbatan yuqoriroq bo‘lgan jismoniy mashqlar bilan shug‘ullantirishi maqsadga muvofiq. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi oldiga dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilarga quyidagilarni o‘rgatish vazifasi yuklatilgan:

- o‘quvchining barkamol jismoniy rivojlanishini ta‘minlash, o‘quv faoliyati bilan aloqador jismoniy yuklamalarga qay darajada tayyor ekanligini aniqlash;
- o‘quvchilarda kunlik jismoniy yuklamalarga tayyorlik malaka va ko‘nikmasini

---

shakllantirish.

– muayyan vaziyatlarda taqozo etiladigan ruhiy va jismoniy sifatlarni shakllantirish.

O'qituvchi har bir o'quvchiga individual yondashuv asosida ularning shaxsiy sifatlarni aniqlab, so'ngra sifatlarni umumlashtirgan holda o'quvchilarni guruhlariga ajratishi mumkin. Bunda past bo'lyi o'quvchilar yuqori murakkab koordinatsiyali mashqlarni yaxshiroq bajarishlari, bo'yi baland o'quvchilar esa yugurish, tezlikka oid mashqlarni, kuchi kam o'quvchilar esa chidamlilikka doir mashqlarni yaxshi bajarishlarini hisobga olish darkor.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, kuchli guruh o'quvchilari o'quv elementini kuchsiz guruhga nisbatan ikki dars avval o'zlashtirib ulgurishadi. Shuni hisobga olgan holda, bunday guruhlariga yangi mavzuni bir vaqtning o'zida boshlab, shu darsning o'zida yakunlash maqsadga muvofiq. Guruhlar o'rtasidagi tafovutni hisobga olgan holda, dars mashg'ulotlarini rejalashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda rejalashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olishi zarur:

- o'quvchilarning dastlabki jismoniy holatini aniqlash;
- turli jismoniy holatdagi o'quvchilarni guruhlariga ajratish;
- jismoniy mashq element yuklamalarini jismoniy holatga moslashtirib taqsimlash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy ta'lim sifatlarni rivojlantirishda butun o'quv yili davomida yuklamalar hajmi bosqichma-bosqich oshirilib boriladi. Bunda o'quvchilar jismoniy kuchi turli darajada bo'lsa-da, ammo tayyorgarligi turlicha bo'lgan ikki guruhni o'qitishda bir xil va ayni paytda turli uslub va vositalardan foydalaniladi.

K.D. Ushinskiy bu borada quyidagicha fikr bildirib o'tgan: "Sinfda bir-biridan kuchli bir qancha guruhlarning shakllanishi nihoyatda foydali. Albatta, agar bunda ustoz bir guruh bilan shug'ullanib, boshqa guruhni mustaqil mashqlar bilan shug'ullantira olsa". O'quvchilarni jismoniy tayyorgarlik darajasi bo'yicha guruhlariga ajratish asosiy va navbatdagi dars mashg'ulotiga aloqador bir-ikki nazorat mashqlarini bajartirish orqali aniqlanishi mumkin.

Navbatdagi dars mashg'ulotlarida har bir guruh jismoniy va texnik tayyorgarligiga qarab alohida topshiriq oladi. Bir guruhdan boshqasiga o'tish uchun ma'lum harakatlantiruvchi elementlar muvaffaqiyatli bajarilgandagina ruxsat beriladi. Shu sababdan ham o'quvchilar berilgan harakat faoliyatini o'zlashtirishdagi xususiyat darajasini o'zlashtirishdagi darajasiga qarab guruhga ajratilishi maqsadga muvofiq.

Darsda yuqori samaradorlikka erishishda o'quvchilarning sinfiy, individual, frontal, aylana mashqlari va boshqa o'quv-mashq mashg'ulotlarini tashkillashtirish metodi ahamiyatga ega. Dars maqsadini hisobga olgan holda, o'quvchilar soni va jismoniy holati, sport anjomlari va boshqa faktorlar hisobga olinib turlicha tashkillashtirilishi mumkin.

Shuni aytishimiz mumkinki, maktabgacha ta'lim va maktab boshlang'ich sinflarida to'g'ri tartibda olib borilgan dars mashg'ulotlari bolaning keyingi hayot faoliyatiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–394-sonli qaror.*

2. *Axmatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish/ Monog. Ibn Sino, –T., 2005.*